

MUSTAQILLIK DAVRIDA SURXONDARYODA YOSH TADBIRKORLARNING FAOLIYATI: TARIXIY SHART-SHAROITLAR VA DAVLAT SIYOSATI

Karimov Akbar, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi

ACTIVITIES OF YOUNG ENTREPRENEURS IN SURKHANDARYA IN THE PERIOD OF INDEPENDENCE: HISTORICAL CONDITIONS AND STATE POLICY

Karimov Akbar, teacher at Termez University of Economics and Service

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МОЛОДЫХ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В ПЕРИОД НЕЗАВИСИМОСТИ: ИСТОРИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ И ПОЛИТИКА ГОСУДАРСТВА

*Каримов Акбар, преподаватель Термезского университета
экономики и сервиса*



<https://orcid.org/0009-0006-6235-9985>

e-mail:
karimov230582@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatida yosh tadbirkorlik harakatining shakllanishi va rivojlanishi tarixiy va tahliliy yondashuv asosida o'rganiladi. Tadqiqotda yosh tadbirkorlikning rivojlanishiga ta'sir etgan ijtimoiy-iqtisodiy omillar, davlat siyosati, huquqiy baza va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tahlil qilinadi. Maqolada yosh tadbirkorlarning erishgan muvaffaqiyatlari, duch kelgan muammolari va ularni bartaraf etish bo'yicha istiqbolli yo'nalishlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Surxondaryo viloyati, yosh tadbirkorlar, davlat siyosati, qonunchilik bazasi, tadbirkorlik muhiti.

Abstract: The article studies the formation and development of the young entrepreneurial movement in Surkhandarya region during the years of independence based on a historical and analytical approach. The study analyzes the socio-economic factors, state policy, legal framework and financial support mechanisms that influenced the development of young entrepreneurship. The article examines the successes achieved by young entrepreneurs, the problems they encountered and promising directions for their elimination.

Keywords: Surkhandarya region, young entrepreneurs, state policy, legislative framework, business environment.

Аннотация: В статье на основе историко-аналитического подхода рассматривается становление и развитие движения молодого предпринимательства в Сурхандарьинской области в годы независимости. В исследовании анализируются социально-экономические факторы, государственная политика, правовая база и механизмы финансовой поддержки, повлиявшие на

развитие молодого предпринимательства. В статье рассматриваются успехи молодых предпринимателей, проблемы, с которыми они сталкиваются, и перспективные пути их преодоления.

Ключевые слова: *Сурхандарьинская область, молодые предприниматели, государственная политика, законодательная база, деловая среда.*

KIRISH. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, mamlakatda bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni boshlangan bo'lib, bu jarayonda tadbirkorlikni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Ayniqsa, yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish, ularning biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash masalalari davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi. Surxondaryo viloyati – mamlakatning eng janubiy hududi bo'lib, o'zining serquyosh iqlimi, tabiiy resurslari va chegara hududidagi strategik joylashuvi bilan tadbirkorlik uchun keng imkoniyatlarga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Mustaqillik yillarida butun O'zbekiston hududidagi yoshlar tarixiga ularga bag'ishlab yozilgan asarlar, monografiyalar kiradi. Ushbu guruhga yoshlar bo'yicha izlanishlar olib borgan, o'z ishlarida yoshlar kamoloti masalalarini yoritgan R.Turdiyev[1] va G.Tulenovalarning[2] e'lon qilingan nashrlarini kiritish mumkin. Mustaqillik yillarida viloyat tarixi bo'yicha ilmiy ishlarni amalga oshirgan Surxondaryo viloyatining olimlaridan ayrimlarini ko'rsatish mumkin. Ushbu mualliflarga E.R.Tillayev[3], F.J.Yormatov[4], S.B.Radjabovalarni[5] kiritish mumkin. Ular o'z tadqiqotlarida viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yoshlarning ishtirokiga doir ayrim masalalarini o'rganganlar.

MUHOKAMA. O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng, ijtimoiy muammolarni hal etishda bozor iqtisodiyotini barpo etish va mamlakatda tadbirkorlik hamda kichik biznesni rivojlantirish yo'lidan bordi. Natijada, tadbirkorlik va kichik biznes subyektlari mamlakat xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida faoliyat olib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2016-yil 8-sentyabrda Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisida so'zlagan nutqida, aholi, ayniqsa, yoshlar bandligini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalardan biri ekanini alohida ta'kidladi. Kasb-

hunar kollejlari bitiruvchilari bandligini ta'minlash bunda alohida o'rin tutishi belgilandi.

O'zbekiston dunyo hamjamiyati orasida aholisining katta qismini yoshlar tashkil etuvchi mamlakatdir. Yoshlarning aholi orasida ko'pchilikni tashkil qilishi mamlakatni ertangi kungi barqaror rivojlanishiga katta ishonch beradi. Ularning intellektual va jismoniy kamolotiga qaratilgan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va yoshlar jamoalari hamda tashkilotlari faoliyatini kengaytirishning ko'plab afzalliklari bor. Shulardan biri kelajak avlodning ma'naviy ehtiyojlarini qondirish va mablag' topish imkoniyatlarini kuchaytirishdir. O'zbekistonda "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun 1991-yilda, uning yangi tahriri esa 2016-yilda qabul qilindi[6]. Qonunda yoshlarga oid davlat siyosatidagi vazifalar aniq belgilab olindi. Ana shu vazifalardan kelib chiqib, O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligi sohasini isloh qilishga qaratilgan, aniq maqsadlarga yo'naltirilgan dasturlar izchil amalga oshirilmoqda.

Yoshlar siyosatiga oid Qonunning 3-moddasida yoshlarga oid davlat siyosati, "yoshlar (yosh fuqarolar)", "yosh oila", "yosh mutaxassis", "yoshlar tadbirkorligi" tushunchalariga alohida ta'rif berilgan. Qolaversa, Qonunning 2-bobida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshiruvchi davlat organlarining vakolatlari va vazifalari moddalar bilan aniq qilib belgilab qo'yilgan. 13-moddada esa, yoshlarning mehnat qilishi va bandligini tartibga solish davlat mehnat organlari zimmasiga yuklatilgani aks etadi. Ushbu qonunning 26-moddasida yoshlar tadbirkorligining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishida qanday imtiyozlar va shart-sharoitlar yaratilganligi haqida so'z boradi. Albatta, qonunda yoshlar masalasiga oid ko'p qirrali siyosat haqida so'z yuritilar ekan, har bir ijtimoiy-iqtisodiy masala hisobga olingan. Shunday bo'lsa-da, yoshlar tadbirkorligini alohida iqtisodiyotdagi tarmoq sifatida ajratishni nazarda tutuvchi modda mavjud emas. 1996-yil 17-apreldagi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-1425-son Farmoniga ko'ra, Yoshlar ittifoqi o'rnida "Kamolot" jamg'armasi tuzildi[7]. 2001-yil 25-aprelda "Kamolot" jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati sifatida qayta tashkil etildi. Shu kuni "Kamolot" YoIHning Dasturi va Nizomi qabul qilindi[8]. Yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish, ushbu sohaga oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida "Kamolot" YoIH, "Mikrokreditbank", "Agrobank", O'zbekiston savdo-sanoat palatasi hamkorligida har yili an'anaviy tarzda "Yosh tadbirkor – yurtga madadkor", "Eng yaxshi biznes-loyiha" hamda "Yosh tadbirkor kamoloti – qishloq taraqqiyoti kafolati" loyihalari ishlab chiqildi. 2010-yilning o'zida loyihada muvaffaqiyatli qatnashib, imtiyozli kreditga ega bo'lgan 70 nafar yosh tadbirkor o'z biznes rejalari asosida mehnat faoliyatini yo'lga qo'ydi[9]. 2012-yildan boshlab yosh tadbirkorlar joylarda duch kelayotgan muammolarni o'rganib tahlil qilish, ularni tezkorlik bilan hal etish, tegishli hokimlik va joylardagi davlat tashkilotlariga takliflar kiritish maqsadida "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati hududiy bo'limlari qoshida "Yoshlar ishonch telefon"lari tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida"gi 2018-yil 27-iyundagi PF-5466-son farmonini bajarish yuzasidan, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-avgustdagi 669-son qarori qabul qilindi[10]. Qarorga ko'ra, O'zbekiston yoshlar ittifoqi huzurida "Yoshlar – kelajagimiz" jamg'armasi tuzildi. Jamg'arma nizomiga ko'ra, yosh tadbirkorlarga moliyaviy yordam ko'rsatadi, ularga biznes reja tuzish, "START UP" g'oyalarni ro'yobga chiqarishga ko'maklashadi. Jamg'arma mablag'lari doirasida ajratilgan kreditlar ishlatilishi monitoringini yo'lga qo'yadi. Tadbirkorlik faoliyatiga jalb etilgan yoshlar sonining ortishiga banklarning kreditlash tizimidagi muammolarning bartaraf etilishi, tadbirkorlikni boshlash uchun sarmoyalar jalb qilishning ahamiyati katta. 2018–2019-yillar mobaynida yosh tadbirkorlarning 7 690 ta biznes loyihalariga jami 1 trln 614 mlrd so'm

miqdorida imtiyozli kredit mablag'lari ajratish orqali 39 577ta yangi ish o'rni yaratilishiga erishildi[11].

2019-yilda 874ta loyihaga 167 mlrd 171 mln so'm kredit mablag'lari ajratilib, 5 854ta yangi ish o'rinlari yaratilishi rejalashtirilgan edi. Davlat dasturi doirasida shu yilning yanvar-dekabr oylarida 327 nafar yoshlarning 71 mlrd 213 mln so'mlik loyihalari moliyalashtirilib, 975 ta yangi ish o'rinlar yaratildi[12]. Hozirgi kunga qadar 14 ta tuman va shaharda 48 ta "Yoshlar mehnat guzari" kompleksini tashkil etish uchun bino va yer maydonlari ajratilib, tashabbuskor yosh tadbirkorlar jalb qilindi. 2019-yilning dekabr oyi holatiga ko'ra, viloyatning Qiziriq, Qumqo'rg'on tumanlarida 1tadan, Angor va Jarqo'rg'on tumanlarida 2tadan "Yoshlar mehnat guzari" komplekslari qurib bitkazilib, foydalanishga topshirildi. Buning natijasida 60 ta yangi ish o'rinlari yaratildi[13].

2019-yilda yoshlarning tadbirkorlikka bo'lgan qiziqishlarini oshirish va ularni tadbirkorlikka keng jalb qilish, yosh tadbirkorlarga uslubiy va amaliy ko'mak berish maqsadida 12 oy davomida 42 marotaba "Biznes sayohatlar", 19 marotaba "Savdo yarmarka"lari, 75 marotaba biznes treninglar hamda 30 marotaba "Muvaffaqiyatga erishish sirlari" mavzusida o'quv-seminarlar tashkil etilib, 23 ming nafardan ortiq yoshlar qamrab olindi[14].

2019-yil 23-iyun kuni "Yoshlar markazi" binosida viloyat hokimi hamda yosh tadbirkorlar o'rtasida "Muvaffaqiyatga erishish sirlari" mavzusida "Ochiq muloqot" hamda "Yoshlar kelajagimiz" jamg'armasi orqali imtiyozli kredit mablag'lari orqali o'z tadbirkorlik faoliyatini boshlagan yosh tadbirkorlar ishtirokida "Savdo yarmarkasi" tashkil etildi. Ochiq muloqotda muvaffaqiyatga erishgan tadbirkorlar yosh tadbirkorlarga tadbirkorlik sirlari bo'yicha ma'lumotlar berib o'tishdi, unda 410 nafarga yaqin yosh tadbirkorlar ishtirok etishdi[15].

Surxondaryo viloyatida 2019-yilda ishsiz yoshlar hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj oila farzandlarining bandligini ta'minlash maqsadida o'tkazilayotgan "Har bir yoshga bir gektar" loyihasi doirasida 1800 nafar yoshlarga takroriy ekin ekish

uchun yer ajratib berildi. Natijada yana 2230 nafar yoshlar qo‘shimcha ish bilan ta‘minlandi[16].

XULOSA. Xulosa qilib qayd etish kerakki, Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatida yoshlarning tadbirkorlik faoliyati davlat siyosati, iqtisodiy islohotlar va mahalliy shart-sharoitlar natijasida sezilarli rivojlandi. Viloyatning chegaradosh hudud sifatidagi strategik joylashuvi, tabiiy resurslari va turizm imkoniyatlari yosh tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun muhim omillar bo‘ldi. Davlat tomonidan tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qonunchilik bazasining shakllanishi, kredit va grant tizimining joriy etilishi hamda “Yoshlar – kelajagimiz” dasturi yoshlarning biznesga bo‘lgan qiziqishini oshirdi. Surxondaryoda yosh tadbirkorlar qishloq xo‘jaligi, sanoat, xizmat ko‘rsatish va innovatsion texnologiyalar kabi sohalarda o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘ymoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Туленова Г. Молодёжная политика в Республике Узбекистан: развитие и перспективы, Ташкент: Aloqachi, 2008.
2. Turdiboyeva R. Yoshlarning huquqiy madaniyatining shakllantirish, Toshkent: O‘zbekiston, 2014.
3. Tillayev E.R. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi o‘zgarishlar (Janubiy viloyatlar misolida; tarix fanlari nomzodi dissertatsiyasi. - Toshkent, 2010.
4. Yormatov F.J. O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash tizimi: holati, shakllanish jarayoni, rivojlanish istiqbollari (1991-2010-yillar. Janubiy viloyatlar misolida). Tarix fanlari nomzodi dissertatsiyasi. – Toshkent: O‘zMU, 2010.
5. Radjabova S.B. Surxondaryo viloyatining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida xotin-qizlarning tutgan o‘rni (1991-2020 yy). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Termiz, 2022.
6. Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi qonuni (Elektron resurs) murojaat qilingan sana: 7.07.2020. kirish rejimi: <https://lex.uz/acts/3026246>
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi yoshlarining Kamolot jamg‘armasi to‘g‘risidagi PF-1425-son farmoni // 17.04.2021-yil <https://lex.uz> qidiruv tizimi.
8. O‘zMA, M-13 fond, 1 –ro‘yxat, 1-ish, 2-varaq.
9. Yusupov R. Eng yaxshi biznes loyiha // Turkiston gazetasi. 2010-yil 6-noyabr №83-84.
10. Vazirlar Mahkamasining 16.08.2018-yil 669-son qarori // <https://lex.uz> qidiruv tizimi, murojaat qilingan sana 30.03.2021.
11. Yoshlar – kelajagimiz jamg‘armasi joriy arxivi, 2020-yil, 3-06 jild, 1-varaq.
12. Surxondaryo viloyati iqtisodiyot boshqarmasi joriy arxivi. 2019-yilgi ma‘lumotlar papkasi.–B. 56.
13. Surxondaryo viloyat hokimiyatining joriy arxivi. 2019-yil 26-dekabr, 12-bayonnoma.–B.68.
14. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ittifoqining joriy arxiv ma‘lumotlari (Ma‘lumotlar elektron shaklda taqdim etilgan).
15. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar – kelajagimiz jamg‘armasi joriy arxivi. 2018–2021-yil ma‘lumotlari.
16. Surxondaryo viloyat hokimiyatining joriy arxivi, 2019-yil 26-dekabr, 12-bayonnoma.–B.68-69.

